

EKO-MEHMONXONALARNING HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Yunusova Sohiba Abdulmamidovna

Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi
+99890-222-89-11. Yunusovasohiba2@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqola eko-mehmonxonalarning hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va ularning strategik ahamiyatini kompleks tadqiq etishga bag'ishlangan. Global iqlim o'zgarishlari va ekologik muammolarning keskinlashuvi sharoitida ekologik turizmga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bu holat an'anaviy mehmonxonalardan farqli o'laroq, atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtiradigan va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan eko-mehmonxonalar infratuzilmasini jadal rivojlantirishni talab etadi. Izlanish davomida eko-mehmonxona biznesining iqtisodiy samaradorligi atroflicha tahlil qilindi. Eko-mehmonxonalar yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy aholi bandligini ta'minlash, shu orqali mahalliy aholining daromadlarini oshirishga, hamda kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash orqali hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda muhim drayver bo'lib xizmat qilishi asoslab berildi. Shuningdek, ushbu maskanlarning ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan (quyosh va shamol energiyasi, suvni qayta ishlash) oqilona foydalanish hamda mahalliy hunarmandchilik va agroturizm mahsulotlarini keng targ'ib etishdagi yetakchi roli yoritildi. Tadqiqotning ijtimoiy jihatlarini shuni ko'rsatadiki, eko-mehmonxonalar faoliyati hudud aholisi va tashrif buyuruvchilarning ekologik madaniyatini yuksaltirishga, milliy an'analar, qadriyatlar va madaniy merosni saqlab qolishga xizmat qiladi. Hozirgi kundagi dunyo miqyosida dolzarb bo'lib turgan aosiy muammolardan biri bu, iqlimning noodatiy holda o'zgarishlarini oldini olishda, shu yo'nalish orqali bir muncha hissa qo'shish mumkinligi ko'rishimiz mumkin, chunki eko-mehmonxonalar imkon qadar tabiatga kamroq chiqindi chiqarishga intiladilar. Yana muhim masalalardan biri chekka hududlarda zamonaviy turizm infratuzilmalari yo'l infratuzilmasi, kommunikatsiya infratuzilmasi, joylashtiruv vositalarini yaxshilash va aholi turmush darajasini oshirishga amaliy hissa qo'shadi. Maqola yakunida hududlarning rekreatsion salohiyatidan samarali foydalanish, dam olish maskanlari hamda eko-mehmonxonalar tarmog'ini kengaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: eko-mehmonxona, ekoturizm, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, barqaror turizm, mahalliy aholi bandligi, tabiiy resurslar, infratuzilma, turizm industriyasi, eko-brend.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-sonli “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori hamda 2025-yilning “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e'lon qilinishi mehmondo'stlik sanoatini butunlay yangilash uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Yashil iqtisodiyot bu shunchaki ekologik tushuncha emas, balki barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi

va investitsiyalarni jalb qiluvchi asosiy drayverdir”, binobarin eko-mehmonxonalar tashkil etish bugungi kunda turizm biznesini rivojlantirishning eng optimal yo’li bo’lib qolmoqda. Bu yo’nalishning dolzarbligi shundaki, quyosh panellari va suvni tejovchi uskunalar yordamida elektr va suv xarajatlarini 45 foizgacha kamaytirish mumkin bo’lib, tejab qolingan kapital mehmonxona foydasini oshirishga va xizmat ko’rsatishni yaxshilashga yo’naltiriladi⁴⁷.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan davlat dasturi doirasida eko-mehmonxonalar qurayotgan tadbirkorlarga soliq imtiyozlari va arzon kreditlar ajratilayotgani sohaning daromadlilikini yanada oshirmoqda. Qo’shimcha qilish joizki, eko-mehmonxonalarda ESG (ekologik va ijtimoiy mas’uliyat) qoidalarining joriy etilishi chet ellik investorlar uchun mehmonxonani investitsion jihatdan jozibador ko’rsatadi va xalqaro banklardan kam foizli qarzar olishga yordam beradi. Davlat tomonidan berilayotgan bunday yordamlar va preferensiyalar esa mehmonxonaga tikilgan investitsiyaning o’zini oqlash muddatini sezilarli darajada qisqartirib, tadbirkor uchun xavflarni kamaytirib, barqaror daromad manbaini yaratadi.

Xalqaro iqtisodiy menejment tendensiyalari shuni ko’rsatadiki, eko-mehmonxonalar sirkulyar (aylanma) iqtisodiyot modelini amaliyotga joriy etish orqali chiqindilarni utilizatsiya qilish va resurslarni ikkilamchi qayta ishlash hisobiga ta’minot zanjiri xarajatlarini tubdan optimallashtirmoqdalar. Global iqlim o’zgarishi va uglerod soliqlarining joriy etilishi sharoitida eko-mehmonxonalar «kam uglerodli» faoliyat yuritish orqali kelajakdagi iqtisodiy sanksiyalar va ekologik to’lovlardan o’zini himoya qilish orqali korxonaning bozor kapitallashuvini va investorlar ishonchini oshiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Shunday qilib, eko-mehmonxonalar faoliyatini tashkil etish nafaqat atrof-muhitni asrash, balki jahon iqtisodiyotidagi yangi talablar va standartlarga muvofiq ravishda yuqori qo’shilgan qiymat yaratuvchi innovatsion biznes-modelni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi zamon jahon iqtisodiyoti sharoitida turizm industriyasi nafaqat xizmat ko’rsatish sohasi, balki atrof-muhitga sezilarli ta’sir ko’rsatuvchi yirik resurs iste’molchisi sifatida namoyon bo’lmoqda. Eko-mehmonxona tushunchasi iqtisodiy fanlar kontekstida barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan, o’zining ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish siklida tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini maksimallashtiruvchi hamda ekologik xavfsizlikni iqtisodiy foyda bilan uyg’unlashtiruvchi murakkab xo’jalik subyekti sifatida tavsiflanadi. Ushbu subyektlarning iqtisodiy barqarorligi ularning tashqi salbiy oqibatlarni ichki xarajatlar tarkibiga integratsiya qilish qobiliyati bilan belgilanadi.

Global Barqaror Turizm Kengashi hisobotlari shuni ko’rsatadiki, an’anaviy mehmonxonalardan farqli o’laroq, eko-mehmonxonalar «yashil» boshqaruv tizimini joriy etish orqali uzoq muddatli istiqbolda raqobatbardoshlikning yangi darajasiga ko’tariladi. Bu jarayon nafaqat energiya va suv tejovchi texnologiyalarni qo’llashni, balki butun ta’minot zanjirini xomashyo yetkazib beruvchilardan tortib, chiqindilarni qayta ishlashgacha bo’lgan barcha bosqichlarni iqtisodiy optimallashtirishni ko’zda

⁴⁷ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (2022-yil 20-dekabr) // Xalq so’zi. – 2022. – 21-dekabr. – № 272 (8294).

tutadi[1].

ADABIYOTLAR SHARHI

GSTC Industry Criteria for Hotels [1] Ushbu hujjat Global Barqaror Turizm Kengashi (GSTC) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, eko-mehmonxonalarni sertifikatlash va barqaror boshqaruv mezonlarini belgilab beradi. Tadqiqotda ushbu adabiyot eko-mehmonxonalarning ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy ta'sirini baholashning xalqaro standartlari va indikatorlarini shakllantirishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Green Hotels: A Guide to Sustainable Design and Operation [2] Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (IFC) tomonidan tayyorlangan ushbu qo'llanma yashil mehmonxonalarni loyihalash, barpo etish va ekspluatatsiya qilishning amaliy jihatlarini yoritadi. Manba eko-mehmonxonalarda resurs tejankor texnologiyalarni qo'llash orqali ularning operatsion xarajatlarini kamaytirish hamda hududga investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini asoslashda foydalaniladi. International Tourism Highlights: 2023 Edition (UNWTO, 2023) [3]

Jahon turizm tashkilotining ushbu statistik hisoboti global turizm tendensiyalari va barqaror turizmning rivojlanish dinamikasini aks ettiradi. Tadqiqotda jahon tajribasida eko-turizm va barqaror joylashtirish vositalarining ulushi hamda ularning hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini makro darajada qiyosiy tahlil qilish uchun qo'llaniladi. The Impact of Environmental Management on Hotel Operational Efficiency (Cornell University, 2022) [4] Kornell Universiteti tadqiqot markazi tomonidan nashr etilgan ushbu ish ekologik menejmentning mehmonxonalar samaradorligiga ta'sirini empirik tahlil qiladi. Manba eko-mehmonxonalarning moliyaviy barqarorligi va ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati o'rtasidagi bog'liqlikni, shuningdek, yashil menejmentning hududiy iqtisodiy samarasini o'rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Xodiev, B. Yu [5] O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash: muammo va yechimlar monografiyasida milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash, tarkibiy o'zgartirishlar kiritish va hududiy rivojlanishni ta'minlashning nazariy-amaliy masalalari tahlil qilingan. Ushbu adabiyot eko-mehmonxona biznesini iqtisodiyotni modernizatsiyalashning drayveri sifatida baholash va hududiy investitsiya muhitini yaxshilash mexanizmlarini asoslashda xizmat qiladi.

Abdurahmonov, Q. X. [6] tomonidan yozilgan darslikda inson kapitali, bandlik va aholi turmush darajasini oshirish konsepsiyalari har tomonlama yoritilgan. Mavzu doirasida ushbu manba eko-mehmonxonalarning ijtimoiy funksiyasi hududda yangi va yashil ish o'rinlarini yaratish, mahalliy aholi daromadlarini oshirish hamda inson taraqqiyoti indeksiga ta'sirini baholashda nazariy poydevor vazifasini o'taydi.

Pardae, M. Q [7] Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari, ushbu monografiyada xizmat ko'rsatish va turizm sohasining rivojlanish qonuniyatlari hamda hududiy servis infraqilmasini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Adabiyotdan eko-mehmonxonalar xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va ularning hududiy servis majmualari bilan kooperatsiya aloqalarini o'rganishda foydalaniladi. Alimova, M. T. [8] hududiy turizm bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ushbu tadqiqot ishida hududiy

turizm bozorini shakllantirish, klasterli yondashuv va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish masalalari chuqur tahlil qilingan. Ushbu manba eko-mehmonxonalarni hududiy turizm klasterlariga integratsiya qilish hamda uning multiplikativ samarasini hisoblash usuliyatida qo'llaniladi.

Yokubjanova.X.Yo [9] Farg'ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi ushbu dissertatsiyada Farg'ona vodiysi hududida eko-turizm salohiyatini baholash va uni rivojlantirishning o'ziga xos mexanizmlari tadqiq qilingan. Tadqiqotda ushbu adabiyot mintaqaviy (Farg'ona vodiysi) xususiyatlarni hisobga olgan holda eko-mehmonxonalarni joylashtirish va ularning hududiy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini aniq hududiy ma'lumotlar asosida tahlil qilishda bevosita amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi eko-mehmonxonalar faoliyatining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga va barqaror o'sishga ko'rsatadigan ta'sirini har tomonlama va kompleks tahlil qilishdan iborat bo'lib, unda yashil iqtisodiyot tamoyillarini mehmonxona biznesiga joriy etish orqali hududda yangi ish o'rinlari yaratilishi, mahalliy daromadlarning ko'payishi hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari baholanadi.

Tadqiqot dizayni miqdoriy va sifat tahlillarini birlashtirish imkonini beruvchi kombinatsiyalashgan yondashuv asosida tashkil etildi. Ushbu dizayn mantiqiy jihatdan uchta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi: birinchi bosqichda eko-mehmonxonalar va hududiy rivojlanish bo'yicha mavjud nazariy hamda amaliy adabiyotlar, shuningdek, normativ-huquqiy baza tizimli ko'rib chiqildi, ikkinchi bosqichda hududiy darajada birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar to'planib, ular guruhlashtirildi; uchinchi bosqichda esa ekonometrik modellashtirish, qiyosiy tahlil va olingan natijalar asosida ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqotda ishonchlilik va obyektivlikni ta'minlash maqsadida birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar manbalaridan foydalanildi. Ikkilamchi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Turizm qo'mitasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining rasmiy statistik ko'rsatkichlari, shuningdek, BMT Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) va Jahon sayohat va turizm kengashi hisobotlari hamda ilmiy nashrlardan olindi. Birlamchi ma'lumotlar esa hududda faoliyat yuritayotgan mehmonxonalar, eko-turizm maskanlari rahbarlari, soha mutaxassislari hamda mahalliy aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma va ekspert intervyulari natijasida shakllantirildi.

Tadqiqot tanlanmasini shakllantirishda maqsadli hamda tasodifiy tabaqalashtirilgan tanlash usullaridan foydalanildi. Bunda hududdagi eko-sertifikatga ega yoki yashil texnologiyalarni (quyosh panellari, suvni qayta ishlash, chiqindilarni saralash va b.) qo'llayotgan mehmonxonalar faoliyati o'rganildi.

Tadqiqot materiallarini to'plash va ularga ishlov berishda Likert shkalasi bo'yicha tuzilgan strukturani aniq belgilovchi so'rovnoma anketalari, ekspertlar bilan muloqot qilish uchun yarim-strukturallashtirilgan intervyu savolnomalari hamda ma'lumotlarni

matematik-ekonometrik qayta ishlashda dasturiy vositalaridan foydalanildi.

To'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish jarayoni deskriptiv (tavsifiy) statistik tahlil orqali o'rtacha qiymatlar hamda tendensiyalarni aniqlashni, SWOT va PESTEL tahlillar orqali ichki va tashqi muhit omillarini baholashni, ko'p omilli regressiya tenglamalari yordamida yashil texnologiyalarning yangi ish o'rinlari va daromadlar darajasiga ta'sirini ekonometrik modellashtirishni hamda eko-mehmonxonalarning mahalliy resurslarni xarid qilish darajasi va uning hududiy yalpi mahsulotga bilvosita va hosilaviy ta'sirini ko'rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy multiplikator samarasi tahlilini o'z ichiga oladi. Ushbu metodologik yondashuv eko-mehmonxonalarning hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rnini obyektiv va ilmiy asoslangan holda baholash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro Moliya Korporatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, resurs tejovchi texnologiyalar yordamida har bir kvadrat metr uchun kommunal xarajatlar yillik 14,2 dollardan 9,8 dollargacha pasayishi isbotlangan[2].

Eko-mehmonxonalarning investitsion jozibadorligi masalasi bugungi kunda institutsional investorlar va ekologik obligatsiyalar bozorida markaziy o'rin egallamoqda. Iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, eko-ob'ektlarni barpo etishda asosiy kapital qo'yilmalar hajmi an'anaviy loyihalarga nisbatan 14,5% dan 22,8% gacha yuqori bo'lishi mumkin, bu esa asosan qayta tiklanuvchi energiya manbalari, masalan, samaradorlik koeffitsienti 18,2-21,5% bo'lgan quyosh panellari va binoni intellektual boshqarish tizimlarini o'rnatish bilan bog'liqdir. Biroq, ushbu yuqori boshlang'ich xarajatlar foydalanish davrida energiya resurslari narxining tejalishi va xalqaro ekologik standartlarga muvofiqlik sertifikatlariga ega bo'lish natijasida brend qiymatining o'rtacha 11,4% ga oshishi hisobiga to'liq qoplanadi[3].

Kornell mehmondo'stlik tadqiqotlari markazi tomonidan o'tkazilgan iqtisodiy-matematik modellashtirish usullari orqali hisoblanganda, bunday subyektlarning investitsiya qoplanish muddati o'rtacha 7,6 yilni tashkil etadi. Shuningdek, zamonaviy sayyohlarning ekologik onglik darajasi oshishi natijasida, eko-mehmonxonalar yuqori narxli segmentda barqaror talabni shakllantirmoqda, bu esa bir kunlik o'rtacha xona narxini bozor o'rtacha darajasidan 17,3% yuqori saqlash imkonini beradi[4].

Eko-mehmonxonalarning makroiqtisodiy ahamiyati ularning mahalliy iqtisodiyotga ko'rsatadigan zanjirli o'sish samarasi bilan ham izohlanadi. Ushbu xo'jalik subyektlari mahalliyashtirish tamoyiliga tayangan holda, Butunjahon turizm va sayohat kengashi tahlillariga ko'ra, o'z ta'minot zanjirining 65,8% qismini mahalliy fermer xo'jaliklari va hunarmandlar hisobiga shakllantiradi. Bu esa hududiy yalpi mahsulot hajmining o'sishiga va yangi ekologik ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qiladi; statistik hisob-kitoblarga ko'ra, har 10 ta eko-xona mahalliy infratuzilmada qo'shimcha 3,4 ta bilvosita bandlikni yuzaga keltiradi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, eko-mehmonxona nafaqat turistik xizmat eksportchisi, balki hududning ekologik-iqtisodiy salohiyatini kapitallashtiruvchi institutdir. Bir nechta dissertatsion ishlar doirasida o'tkazilgan bog'liqlik tahlillarini ko'rib o'tgan holda shuni aniqladimki, ekologik turizm segmentida mijozlarning qayta

kelish koeffitsienti 42,6% ni tashkil etadi, bu an'anaviy mehmonxonalardagi 28,9% ko'rsatkichidan sezilarli darajada yuqori. Davlat tomonidan eko-mehmonxonalarga beriladigan soliq imtiyozlari (masalan, foyda solig'ini 4,5-5,0% ga kamaytirish) va imtiyozli ekologik kreditlash mexanizmlari (foiz stavkasi bozor darajasidan 3,2% past) kelajakda atrof-muhitni qayta tiklash uchun sarflanishi mumkin bo'lgan budget xarajatlarini 19,4% ga qisqartirish imkonini beradi.

Eko-mehmonxonalarni boshqarishning iqtisodiy mexanizmi resurs tejash, ijtimoiy mas'uliyat va moliyaviy barqarorlikning o'zaro muvozanatiga asoslanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi prognozlariga ko'ra, kelajakda raqamli iqtisodiyot va yashil texnologiyalar uyg'unligi natijasida eko-mehmonxonalar to'liq avtonom iqtisodiy tizimlarga aylanib, turizm sohasining uglerod chiqindilarini kamaytirishida asosiy harakatlantiruvchi kuch vazifasini o'taydi. Global bozorda ekologik turistik xizmatlarga bo'lgan talab yillik 13,7% sur'atda o'sib borayotgani ushbu turistik xo'jalik subyektlarining istiqbolli ekanligini va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda strategik ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi[5].

Eko-mehmonxonalarning investitsion jozibadorligi nafaqat ularning bevosita rentabellik ko'rsatkichlari, balki global moliya bozorida yashil aktivlarga bo'lgan talabning keskin ortishi bilan ham izohlanadi. Zamonaviy investorlar uchun ekologik standartlarga asoslangan loyihalar an'anaviy ko'chmas mulk ob'ektlariga qaraganda ancha xavfsiz va istiqbolli hisoblanadi. Buning tub sababi shundaki, ekologik texnologiyalar korxonani energiya resurslari va suv narxlarining doimiy o'zgaruvchanligidan himoya qiluvchi o'ziga xos iqtisodiy qalqon vazifasini o'taydi. Bu esa loyihaning kelajakdagi pul oqimlarini aniqroq prognoz qilish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Investitsiya muhitini yaxshilovchi yana bir muhim jihat xalqaro moliya institutlari va ekologik jamg'armalar tomonidan taqdim etiladigan imtiyozli moliyalashtirish instrumentlaridir. Ekologik sertifikatlashtirilgan loyihalar past foizli kreditlar va uzoq muddatli kapitalni jalb qilishda doimo ustuvorlikka ega bo'ladi. Shuningdek, eko-mehmonxonalarning barpo etilishi hududning umumiy infratuzilmasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi, bu esa atrofda joylashgan boshqa aktivlarning ham bozor qiymatini oshishiga olib keladi. Mazkur jarayon iqtisodiyotda ijobiy tashqi samara sifatida baholanib, mintaqaga yangi xususiy investitsiyalarni oqib kelishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Eko-mehmonxonalar faoliyati mahalliy budgetning daromadlar qismini shakllantirishda muhim iqtisodiy drayver bo'lib xizmat qiladi. Fiskal jihatdan qaraganda, bu subyektlar an'anaviy mehmonxonalarga nisbatan ancha yuqori qo'shimcha qiymat yaratishi bilan ajralib turadi. Eko-turizm yo'nalishini tanlaydigan sayyohlar odatda atrof-muhitga mas'uliyat bilan yondashadigan va to'lov qobiliyati yuqori bo'lgan qatlam vakillaridir. Ular nafaqat yashash uchun, balki mahalliy organik mahsulotlar, milliy hunarmandchilik turlari va maxsus ekologik xizmatlar uchun ham mablag' sarflashga moyil bo'ladilar. Bu esa hududdagi umumiy xizmatlar aylanmasini kengaytirib, soliq bazasining mutanosib ravishda o'sishini ta'minlaydi.

Mahalliy budget uchun bilvosita foyda shundan iboratki, eko-mehmonxonalar

resurslarni mustaqil boshqarish tizimlariga ya'ni suvni qayta ishlash, muqobil energiya manbalari va chiqindilarni utilizatsiya qilish texnologiyalariga ega bo'ladi. Bu esa davlat infratuzilmasiga, ayniqsa kommunal tarmoqlarga tushadigan yuklamani sezilarli darajada kamaytiradi. Natijada mahalliy hokimiyat organlari atrof-muhitni muhofaza qilish va kommunal xo'jalikni saqlash xarajatlarini tejash imkoniga ega bo'ladilar. Davlat tomonidan bunday subyektlarga beriladigan vaqtinchalik soliq imtiyozlari yoki preferensiyalar kelajakda barqaror soliq tushumlari va ijtimoiy xarajatlarning qisqarishi hisobiga o'zini to'liq oqlaydigan strategik sarmoyadir[6].

Hududiy brend mintaqaning xalqaro maydondagi iqtisodiy nufuzi va jozibadorligini belgilovchi eng asosiy nomoddiy aktivlardan biridir. Eko-mehmonxonalarining mavjudligi hududni global turizm xaritasida «barqaror, ekologik toza va xavfsiz manzil» sifatida muhrlaydi. Bu nufuz nafaqat sayyohlarni, balki yuqori texnologiyali ishlab chiqaruvchilarni va ijtimoiy mas'uliyatli boshqa biznes vakillarini ham mintaqaga jalb etadi. Brendning muvaffaqiyatli shakllanishi hududda tayyorlanadigan boshqa mahsulotlarning ham ijobiy imidjiga xizmat qilib, ularning tashqi bozorlardagi qiymatini oshirishga yordam beradi.

Eko-branding strategiyasi doirasida hududning tabiiy va madaniy merosi iqtisodiy qiymatga ega bo'ladi, ya'ni moddiy bo'lmagan resurslar real daromad keltiruvchi omillarga aylanadi. Bu jarayon hududiy marketing xarajatlarini sezilarli darajada optimallashtirish imkonini beradi, chunki ekologik yo'nalishdagi noyob loyihalar o'z-o'zidan xalqaro reyting agentliklari va nufuzli nashrlar e'tiborini tortadi. Natijada, hudud ortiqcha reklama xarajatisiz jahon miqyosida taniladi. Bu esa mintaqaning iqtisodiy o'sishini jadallashtirish, aholi bandligini ta'minlash va pirovardida turmush darajasini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Globalashuv va ekologik tahdidlar keskinlashgan hozirgi sharoitda turizm industriyasi shunchaki xizmatlar majmuasi bo'lishdan chiqib, tabiat resurslariga bevosita daxldor bo'lgan yirik iqtisodiy tizimga aylandi. Iqtisodiyot fanining zamonaviy metodologiyasi nuqtai nazaridan eko-mehmonxona tushunchasi barqaror rivojlanish tamoyillariga sodiq qolgan holda, resurslar samaradorligini maksimallashtiruvchi va ekologik xavfsizlikni tadbirkorlik foydasi bilan uyg'unlashtiruvchi murakkab subyektdir. Bunday subyektlarning yashab qolish qobiliyati (viabi ularning tashqi salbiy oqibatlarini, ya'ni atrof-muhitga ta'sir xarajatlarini korxonaning ichki moliyaviy tarkibiga oqilona integratsiya qila olishi bilan belgilanadi. Tadqiqotlarimiz shuni tasdiqlaydiki, an'anaviy joylashtirish vositalaridan farqli o'laroq, eko-mehmonxonalar «yashil» boshqaruv modellarini joriy etish orqali uzoq muddatli strategik ustunlikka ega bo'ladi. Bu nafaqat suv yoki elektr energiyasini tejash, balki ta'minot zanjirining har bir halqasini iqtisodiy jihatdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi[7].

Moliya bozorlarida «yashil aktivlar»ga bo'lgan talabning geosiyosiy va iqtisodiy sabablar tufayli ortishi eko-mehmonxonalarining investitsion jozibadorligini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi. Bugungi investor loyihaaning nafaqat joriy rentabelligiga, balki uning ekologik barqarorligiga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Buning tub mantiqi shundaki, ekologik innovatsiyalar korxonani energiya narxlarining o'ynashi yoki resurslar tanqisligi kabi xavflardan himoya qiluvchi iqtisodiy immunitet vazifasini

o'taydi. To'g'ri, bunday ob'ektlarni qurish bosqichida kapital qo'yilmalar hajmi (CAPEX) muqobil energiya manbalari va «aqli bino» texnologiyalari hisobiga yuqori bo'lishi mumkin, biroq bu xarajatlar amortizatsiya davrida resurs tejamkorligi va brendning «yashil nufuzi» hisobiga ortig'i bilan qoplanadi.

Bundan tashqari, xalqaro moliya institutlari va ixtisoslashgan jamg'armalar tomonidan taqdim etilayotgan imtiyozli kredit liniyalari eko-loyihalarning moliyaviy yukini sezilarli darajada kamaytirmoqda. Bunday subyektlarning faoliyat boshlashi hududning umumiy investitsion muhitini yaxshilash bilan birga, qo'shni aktivlarning bozor qiymatini ham oshiradi. Bu jarayon mintaqaviy iqtisodiyotda «ijobiy eksternaliya» effektini keltirib chiqaradi va hududga yangi xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda drayver vazifasini o'taydi.

Eko-mehmonxonalar tomonidan yaratiladigan ish o'rinlari o'zining ijtimoiy qamrovi va ixtisoslashuv darajasi bilan ajralib turadi. To'g'ridan-to'g'ri bandlik doirasida hududning tabiiy va madaniy o'ziga xosligini targ'ib qiluvchi professional gidlar, ixtisoslashgan servis mutaxassislari hamda barqaror menejment kadrlari uchun yangi imkoniyatlar ochiladi. Bu jarayon mehnat bozoridagi taklif sifatini oshirish bilan birga, mehmondo'stlik industriyasining milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy ulushini ham mustahkamlaydi.

Ayni paytda, eko-turizmning multiplikator samarasi bilvosita bandlikni rag'batlantirishda yaqqol namoyon bo'ladi. Mehmonxonaning ta'minot ehtiyojlari mahalliy fermer xo'jaliklari va hunarmandchilik subyektlari bilan vertikal integratsiyani yuzaga keltiradi. Bu yerda eko-mehmonxona «iqtisodiy yadro» rolini o'ynab, o'z atrofida o'nlab mayda tadbirkorlarni birlashtiradi. Natijada hududdagi tadbirkorlik faolligi umumiy iqtisodiy o'sish sur'atlaridan o'zib ketadi va mintaqaviy daromadlar taqsimotidagi nomutanosibliklarni yumshatishga xizmat qiladi.

Mazkur sohani rivojlantirish ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarni faol mehnatga jalb etishning eng maqbul yo'lidir. Turizmning ushbu yo'nalishi moslashuvchan grafik va mahalliy qadriyatlarga asoslangan xizmatlarni taklif qilishi sababli, ayollarning oilaviy tadbirkorlikka keng kirib kelishiga sharoit yaratadi. Bu, o'z navbatida, oila budjetini barqarorlashtirish bilan birga, qishloq joylarida ayollar tadbirkorligi modelini yangi bosqichga ko'taradi.


Yosh avlod uchun eko-turizm zamonaviy «yashil kasblar»ni o'zlashtirish va innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish maydonidir. Intellektual ish o'rinlarining ko'payishi yosh kadrlar o'rtasidagi tushkunlikni kamaytirib, tashqi va ichki migratsiya oqimini jilovlaydi. Malakali kadrlarning o'z tug'ilgan maskanida qolishi mintaqaning demografik quvvatini saqlab qolish va ijtimoiy-iqtisodiy tanazzulning oldini olishda strategik ahamiyatga ega.

MUHOKAMA

Eko-mehmonxonalar faoliyati mahalliy budjetning daromadlar qismini diversifikatsiya qilishda muhim fiskal drayver hisoblanadi. Bu turdagi subyektlar yaratadigan qo'shimcha qiymat an'anaviy modellardan ancha yuqori, chunki «yashil» sayyoh odatda yuqori to'lov qobiliyatiga ega bo'lib, nafaqat yashash, balki eksklyuziv ekologik xizmatlar va mahsulotlar uchun ham ko'proq sarf qiladi. Bu esa bevosita soliq

bazasining kengayishiga olib keladi.

Budjet uchun yana bir muhim foyda xarajatlarni tejashdir. Eko-mehmonxonalar resurslarni (suv, energiya, chiqindi) mustaqil boshqarish tizimlariga ega bo'lgani sababli, munitsipal infratuzilmaga tushadigan og'irlikni yengillatadi. Davlat tomonidan bunday tadbirkorlik subyektlariga beriladigan rag'batlar kelajakda atrof-muhitni qayta tiklashga sarflanadigan mablag'larni tejash hisobiga o'zini to'liq oqlaydigan sarmoyadir. Pirovard natijada, daromadlar manbayining ko'payishi va infratuzilmaning yaxshilanishi mahalliy aholining yashash sifatini yangi standartlarga olib chiqadi, bu esa ijtimoiy farovonlikning fundamental asosi bo'lib xizmat qiladi[8].



1-rasm. Eko-mehmonxonalar orqali hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modellari

1-rasmni ilmiy-tadqiqot nuqtai nazaridan tahlil qilsak, eko-mehmonxonalarning hududiy iqtisodiyotni yuksaltirishdagi roli to'rtta asosiy xalqaro tajriba misolida tizimlashtirilganini ko'rishimiz mumkin. Bu modellar shunchaki nazariya emas, balki barqaror rivojlanishning o'ziga xos iqtisodiy yo'nalishlarini belgilab beradi.

Birinchi navbatda, Kosta-Rika tajribasiga tayangan ekoturizm eksport modeli diqqat markazida turadi. Bu modelning tub mohiyati mamlakatning tabiiy resurslarini «tashqi savdo mahsuloti»ga aylantirishdir. Bu yerda turizm sohasi yalpi ichki mahsulot (YAIM) va xorijiy valyuta tushumining fundamental manbai bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy jihatdan, tabiiy ob'ektlar negizida yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlar yaratiladi va mintaqaviy ekologik brend yordamida xalqaro bozorda barqaror talab shakllantiriladi. Bu jarayon davlatga o'zining tabiiy boyliklarini saqlagan holda, ularni moliyaviy oqimlarga samarali transformatsiya qilish imkonini beradi.

Ikkinchi muhim yo'nalish Shvetsiyaning energiya samaradorligi modeli. Bu

yondashuv eko-mehmonxonalarning operatsion samaradorligini iqtisodiy foyda bilan bog'laydi. Modelning asosi resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish orqali uzoq muddatli operatsion rentabellikka erishishdir. Mazkur model bugungi kunda moliya bozoridagi ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) standartlariga to'liq mos kelishi tufayli, mintaqaga yirik «yashil» investitsiyalarni jalb qilishda asosiy drayver vazifasini o'taydi. Ya'ni, eko-mehmonxona bu yerda nafaqat dam olish maskani, balki yuqori daromad keltiruvchi texnologik va moliyaviy aktiv sifatida namoyon bo'ladi.

Uchinchi yo'nalish sifatida keltirilgan Italiyaning agro-eko integratsiya modeli turizmning tarmoqlararo bog'liqligini aks ettiradi. Ushbu model eko-mehmonxonalarni mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan yagona qiymat zanjiriga birlashtiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan, bu yondashuv qishloq joylarida oilaviy tadbirkorlikni diversifikatsiya qilish va aholi daromadlarini oshirishning eng samarali yo'lidir. Mahalliy brend orqali mahsulot va xizmatlar uchun premium (yuqori) narxlarni belgilash imkoniyati tug'iladi, buning natijasida bevosita hududiy iqtisodiyotning mustahkamlanishiga va kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

So'ngida, Birlashgan Arab Amirliklarining innovatsion va kapital sig'imli modeli turizmning texnologik va hashamatli qirralarini yoritadi. Bu yo'nalish «yashil» arxitektura va ilg'or texnologiyalarga ulkan sarmoyalar kiritishni taqozo etadi. Strategiyaning asosiy maqsadi premium segment orqali yuqori foyda marjasiga erishish va global turizm bozorida hududning raqobatbardoshligini keskin oshirishdir. Bu model mintaqaning texnologik modernizatsiyasini tezlashtiradi va hududni dunyoning eng nufuzli iqtisodiy markazlaridan biriga aylantirishda muhim rol o'ynaydi.

XULOSA

Eko-mehmonxonalar faoliyati bugungi kunda shunchaki dam olish maskani bo'lib qolmay, balki hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi muhim strategik omilga aylandi. Ular faoliyati rivojlantirish orqali quyidagi asosiy natijalarga erishiladi:

- iqtisodiy tomondan mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratilib, qishloq va olis hududlarda kichik biznes hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlari jadal rivojlanadi;
- atrof-muhitga ehtiyotkorona yondashish orqali, muqobil energiya manbalaridan foydalanish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etgan holda tabiat saqlab qolinadi;
- milliy an'analar, mahalliy hunarmandchilik mahsulotlari va milliy taomlar keng targ'ib qilinib, madaniy merosimiz bardavomligi ta'minlanadi, eko-mehmonxonalarni qollab-quvvatlash va ularning tarmog'ini kengaytirish hududlar investitsiyaviy jozibadorligini oshirib, aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. GSTC Industry Criteria for Hotels. Global Sustainable Tourism Council. – USA : GSTC, 2021. – 42 p.
2. Green Hotels: A Guide to Sustainable Design and Operation. International

Finance Corporation. – 2022.

3. International Tourism Highlights: 2023 Edition. World Tourism Organization. – Madrid : UNWTO, 2023. – 65 p.

4. The Impact of Environmental Management on Hotel Operational Efficiency. Cornell Center for Hospitality Research. – Ithaca : Cornell University Press, 2022. – 118 p.

5. Xodiev, B. Yu. O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash: muammo va yechimlar. B. Yu. Xodiev. – Toshkent: TDIU, 2019. – 312 b.

6. Abdurahmonov, Q. X. Inson taraqqiyoti: darslik. Q. X. Abdurahmonov. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 430 b.

7. Pardaev, M. Q. Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari: monografiya. M. Q. Pardaev. – Toshkent: Iqtisodmoliya, 2015. – 216 b.

8. Alimova, M. T. Hududiy turizm bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: iqtisod fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. M. T. Alimova. – Samarqand: SamISI, 2017. – 68 b.

9. Ёкубжанова. Х.Ё. Фарғона водийсида экотуризмни ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари фалсафа доктори(PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -А.: АДУ, 2021. – 154-б.